

QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARINI PATOLOGOANATOMIK
YORIB TEKSHIRISH

Аннотация

В статье приведены данные о научно-практическом значении патолого-анатомического вскрытия как объективного и легко доступного для практических ветеринарных специалистов метода диагностики незаразных и заразных заболеваний. Освещены сведения по месту, времени и организации вскрытия, инструментов для вскрытия, меры личной профилактики, а также утилизации и уничтожению трупов животных.

Kalit so'zlar: yorib tekshirish, sud-veterinariya ekspertizasi, ilmiy tadqiqotlar, prozektoriy, diagnostika, ichki a'zolar, morfologik o'zgarishlar, seksion to'plam, dezinfeksiya.

Annotation

The article presents data on the scientific and practical significance of pathological and anatomical autopsy as an objective and easily accessible method for diagnosing non-contagious and contagious diseases for practical veterinary specialists. Information on the organization of the autopsy, time, place and tools for autopsy, personal prevention, as well as disposal and destruction of corpses are covered.

Majburiy so'yilgan yoki o'lgan hayvonlarning jasadini yorib tekshirish (sinonimlari – seksiya, autopsiya, obduksiya) - veterinariya mutaxassislari uchun yuqumsiz va yuqumli kasalliklarga tashxis qo'yishda xolisona baho beruvchi va qiyin bo'lmagan usullardan biridir.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarini patologoanatomik yorib tekshirish usuli diagnostika, ya'ni kasallikni aniqlash, sud-veterinariya ekspertizasi va ilmiy tadqiqotlar maqsadida o'tkaziladi. Diagnostik yorishning maqsadi – hayvon o'limining sababini aniqlash, qo'yilgan klinik diagnoz va bajarilgan davolash tadbirlarining to'g'riligini tekshirishdir. Bunda past qiymatli hayvonlarni diagnostik yorishni veterinariya mutaxassisi bir o'zi o'tkazishi mumkin, biroq qimmatbaho hayvonlarni tajribali vetvrachlar va xo'jalik vakillari ishtirokidagi komissiya tekshiradi. Sud-veterinariya ekspertizasida yorib tekshirish tergov organlari yoki sudning qaroriga muvofiq o'tkaziladi. Bunda xo'jalik hamda hokimiyatning tegishli vakillari qatnashishlari shart. Ilmiy tadqiqotlar sifatida o'tkaziladigan yorib tekshirish ishlari esa aniq bir maqsadda hamda tegishli a'zolar va to'qimalarning chuqur va atroflicha o'rganilishi bilan farq qiladi.

Yorib tekshirishning bunday toifalanishi, albatta, ma'lum darajada shartlidir, chunki diagnostik yorishning natijalari ko'pincha sud-veterinariya ekspertizasi uchun yoki ilmiy ahamiyatga va, aksincha, sud-veterinariya ekspertizasi xulosalari diagnostik mohiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu tufayli, yorib tekshirishning ilmiy-amaliy ahamiyati juda katta va ko'p qirralidir.

Birinchidan, jasadlarni mohirona tekshirish barcha a'zolar va tizimlardagi morfologik o'zgarishlarning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Yorib ko'rish natijalarini klinik-epizootologik ma'lumotlar bilan taqqoslab, asosiy kasallik, uning asoratlari va qo'shimcha kasalliklarni tez va to'g'ri aniqlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davolash-profilaktika tadbirlarini tegishli tarzda va o'z vaqtida tashkil etishga hamda hayvonlar o'limining oldini olishga sharoit yaratadi. Keyingi yillarda chorvachilik texnologiyalarining rivojlanishi va xorijdan keltirilayotgan qishloq xo'jaligi hayvonlari bosh sonining tobora ortib borishi tufayli patologoanatomik diagnostikaning ahamiyati yanada oshdi. Binobarin, yorib tekshiruvchi mutaxassisning tajribasi hamda diagnozning tez va to'g'ri aniqlanishi yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga, yuqumsiz kasalliklarning esa sabablarini bartaraf etishga imkon tug'diradi.

Ikkinchidan, klinik tashxis va davolash natijalarini patologoanatomik nazorat etish yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashni va veterinariya xodimlari malakasining oshishini osonlashtiradi. Hatto, eng yaxshi tibbiyot muassasalarida

ham klinik va patologoanatomik tashxislar orasida 10-12 foizgacha tafovut borligini unutmaslik lozim. Demak, noto'g'ri qo'yilgan klinik diagnozlarning va veterinariya xodimlari yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarning o'rtacha foizini bilmay turib, davolash-profilaktika tadbirlarining yaxshilanishiga erishish mushkul. Shu munosabat bilan G.V.Shorning "Patologik anatomiya - klinikasiz, klinika esa - patologik anatomiya - mantiqsizdir" degan iborasini doimo yodda tutish zarur ("О смерти человека", М., 1925, с. 7).

Uchinchidan, yorib tekshirish hayvonlar a'zolarining vazifasi va tuzilishining birligi, fiziologik va patologik jarayonlarning hamda organizm va tashqi muhit sharoitlarining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi veterinariya mutaxassisining fikrlash qobiliyatini boyitadi va kengaytiradi.

Bundan tashqari, veterinariya amaliyotining xodimlari yorib tekshirishdagi qiziqarli topilmalar, kamdan-kam uchraydigan patologik holatlar va ayrim kasalliklar (o'smalar, leykozlar, moddalar almashinuvi kasalliklari va boshq.) bo'yicha veterinariya fanini boyitish imkoniyatiga ega.

Mazkur maqola yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni inobatga olib hamda amaliy veterinariya mutaxassislarning ta'lablari va ishlash sharoitlaridan kelib chiqib tayyorlandi.

Yorib tekshirishni tashkil etish

Tasdiqlangan amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq, o'lgan hayvonlarni yorib tekshirish va xulosa berishga faqatgina davlat veterinariya xizmati hamda xo'jaliklarning veterinariya mutaxassislari haqlidirlar. Bunda, har bir alohida holatda va doimo, veterinariya-sanitariya qoidalari va shaxsiy gigiyenaga qat'iy rioya qilish hamda infeksiya tarqalishining oldini olish zarur.

Yorib tekshirishning joyi va vaqti

Hayvonlar jasadlarini yorib tekshirish uchun maxsus jihozlangan bino (prozektoriy) veterinariya institutlari, respublika va viloyatlar veterinariya laboratoriyalarida bor, xolos. Ishlab chiqarishdagi veterinariya amaliyoti xodimlari esa yorib tekshirishni biotermik yoki yangi qazilgan chuqurlar oldida, ko'pincha esa chorvachilik fermasining hududi yoki bo'sh turgan binosida bajarishadi. Iqlimning mo'tadil paytlarida jasadlarni patologoanatomik tekshirish unchalik muammo tug'dirmaydi, ammo yomg'ir-qorli havoalarda yorib, to'liq tekshirish bir qadar qiyinchiliklarga olib keladi. Binobarin, chorvachilik fermalarida asfalt yoki beton poli mavjud hamda seksiya stoli, zarur asbob-uskunar va so'ruvchi ventilyatsiya bilan jihozlangan xona ham qurish maqsadga muvofiqdir.

Bunday sharoitlarning mavjudligi veterinariya xodimining ishini yengillashtiradi, patologoanatomik tekshirishni

hamda dezinfeksiya tadbirlarini to'liq va atroflicha bajarishga imkon yaratadi.

Yorib tekshirish jarayonini kunduzgi tabiiy yorug'likda bajarish maqsadga muvofiqdir, chunki bunda a'zo va to'qimalarning rangidagi o'zgarishlarni aniqlash oson kechadi. Biroq, kechiktirib bo'lmaydigan paytlarda sun'iy yorug'likda yorib ko'rish va ikkinchi kuni ma'lum muhitda saqlangan ichki a'zolarini qaytadan tekshirib, bayonnomaga zarur tuzatishlar kiritish mumkin.

Brusellyoz, tuberkulyoz va paratuberkulyozga diagnostik maqsadda, shuningdek turli sabablar bilan brak qilingan, hayvonlarni so'yish va patologoanatomik tekshirish sanitariya qushxonalarida hamda chorvachilik fermalaridagi so'yish maydonchalarida amalga oshiriladi.

Yorib tekshirish asbob-uskunalari

Diagnostik yorib tekshirishlarda anatomik yoki seksion to'plamdan foydalaniladi. Mazkur to'plamda turli hayvonlar jasadlarini to'liq yorib olish uchun zarur bo'lgan barcha asboblardan mavjud. Biroq, bunday to'plam yo'qligida, seksiya yoki amputatsiya uchun katta pichoq, ichak qaychisi, yassi yoki yoy-simon arracha, metall dastali bolg'acha-boltacha, anatomik pinset va o'lehov lineykasi-dan iborat asboblardan to'plamini veterinariya mutaxassisining o'zi tayyorlashi mumkin. Bunda, shuningdek, yodning 5% li spirtli eritmasi, bint va qayroqtosh bo'lishi zarur. Yorib tekshirish doimo charxlangan bo'lishi shart.

Yorib tekshirishni tugatgandan so'ng asboblardan yaxshilab yuviladi va o'yuvchi natriy, xloramin, formalin kabi eritmalar bilan dezinfeksiyalanadi, zoonoz kasalliklarda esa, bundan tashqari, asboblarni qaynatish va artib quritish zarur. Seksiya asboblari quruq joyda saqlanadi.

Jihozlangan maxsus yorib olish binolarida yuqorida keltirilgan asboblardan tashqari miya pichog'i, tugmali va qovurg'a qaychilari, suyaktutqich qisqichlar, yassi iskana, zond, suyak kesish uchun taxtakach, lupa, o'lehov silindrlari, tarozi, spirtovka, surtma va bosmalar tayyorlash uchun yog'sizlantirilgan buyum oynachalari, shuningdek patmaterialni fiksatatsiya qilish va muzey preparatlarini saqlash uchun shisha bankalar va sirlangan idishlar bo'lishi shart.

Shaxsiy xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish

Patologoanatomik tekshirish jarayonida infeksiyaning tarqalishi va yorib tekshiruvchi hamda uning yordamchilariga zoonoz kasalliklar yuqishining oldini olish uchun barcha veterinariya-sanitariya qoidalariga qat'iy amal qilish shart. Buning uchun, avvalo, molboqar-cho'ponlar va joylardagi veterinariya xodimlaridan hayvonning kasallanishi va o'limi haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi. Xuddi shunday klinikali kasal hayvonlar mavjud bo'lsa, ular to'liq ko'rikdan o'tkaziladi. Anamnez va klinik ko'rik natijalari asosida birlamchi (taxminiy) xulosaga kelish - yorib tekshirish jarayonida profilaktika va veterinariya-sanitariya qoidalariga bo'yicha tegishli tarzda zarur choralarini ko'rishga imkon yaratadi.

Kuydirgi kasalligiga gumon qilinganda mikroskopik tekshirishlarda istisno qilinmaguncha jasad yorilmaydi. Kuydirgining ichak formasida oshqozon-ichaklar tizimining meteorizmi oqibatida ko'pincha sepsis jarayonlari rivojlanmay kasal hayvonlar o'lishi sababli periferik qonning mikroskopiyasi salbiy natija berishi mumkin. Bunday hollarda qorin bo'shlig'ini ehtiyotkorlik bilan yorib, kuydirgi karbunkullari odatda rivojlanadigan taloq va yo'g'on ichaklarning holati o'rganiladi.

Zoonoz kasalliklarga gumon qilingan yoki eski jasadlarni yorib olish uchun, qoidaga muvofiq, rezina qo'lqoplar bilan ishlash kerak. Yorib tekshiruvchi va uning yordamchilari xalat, kleynkali yenglar va fartuk kiyishlari shart. Dezinfek-

siya eritmalarini bilan ishlov berilganda sifati buzilmaydigan charm yoki rezina etik kiyish maqsadga muvofiqdir.

Yorib tekshirish jarayonida qo'l yaralansa, ish to'xtatiladi, qo'llar (qo'lqoplar) sovun bilan yaxshilab yuviladi, yaraga yodning 5% li spirtli eritmasi bilan ishlov beriladi. Shundan so'ng yarani bint bilan bog'lab, ustidan qo'lqop kiyiladi va yorib davom ettiriladi.

Yorib tekshirishni tugatib, jasad yig'ishtirib olingandan keyin qo'llar (qo'lqoplar), yenglar, fartuk va etiklar sovun bilan yaxshilab yuviladi. Shuningdek, ular yechilgandan so'ng, xloraminning 2% li eritmasi, o'yuvchi natriy (2%), lizol (3-5%) yoki sovunli-karbolli aralashma bilan dezinfeksiyalanadi. Xuddi shu eritmalar bilan foydalanilgan asboblardan yorib tekshirilgan joy ham dezinfeksiya qilinadi.

Prozektoriyda chekish, ovqatlanish va turli suyuqlik ichish qat'iy ta'qiqlanadi. Yorib tekshirishda yordam berish uchun jalb qilingan shaxslarga shaxsiy profilaktika qoidalarini tushuntirishi kerak. Jasadni yorib tekshirish jarayonida quturish, kuydirgi yoki boshqa zoonoz kasallik bilan zararlantirish ehtimoliga gumon qilinganda, juda tezlik bilan tegishli tibbiyot muassasasiga murojaat qilish shart.

Jasadni utilizatsiya qilish va yo'qotish

Jasadni utilizatsiya qilish nafaqat veterinariya-sanitariya ahamiyatiga ega, balki bunda hayvonlar uchun yuqori sifatli oqsilli ozuqa, texnikaviy yog', teri-charm xomashyosi va boshqa mahsulotlar olish imkoniyati mavjud. Utilizatsiya korxonalarida hayvonlar jasadlariga ishlov berilib, tarkibida 60-63% oqsil, 10-13% yog' va 14-18% mineral moddalar mavjud go'sht-suyak uni tayyorlanadi. Amaldagi veterinariya qoidalariga muvofiq, yuqumsiz kasalliklardan o'lgan hayvonlarning terisi ajratib olinadi.

Biroq, kuydirgi, manqa (sap), quturish, yomonsifati shish (злокачественный отёк), emfizematoz karbunkul, qo'ylar bradzoti, qoramol va cho'chqalarning o'lati, otlarning yuqumli anemiyasi va limfangioit kasalliklaridan o'lgan hayvonlarning terisini ajratish qat'iy man qilinadi.

Yuqumli kasalliklardan o'lgan va utilizatsiya qilish imkoniyati bo'lmagan jasadlar veterinariya xodimlarining nazorati ostida kuydirish, hayvonlar qabristoniga ko'mish yoki biotermik chuqurlarga tashlash yo'llari orqali yo'qotiladi. Jasadlarni ko'mish 2 metr dan kam bo'lmagan chuqurlikda bajariladi va bunda chuqur oldidagi jasad qo'yilgan yerning bir qatlam tuprog'i jasad bilan birga chuqurga ko'miladi. Yorib tekshirish bino ichida bajarilgan bo'lsa, jasadni yig'ishtirib olib, mexanik tozalashdan so'ng stollar, pol hamda ifoslangan barcha buyum va jihazlar 3-5% li kaustik soda, xloramin yoki xlorli ohak eritmalarini bilan dezinfeksiya qilinadi.

Kuydirgi, emfizematoz karbunkul va boshqa xavfli yuqumli kasalliklardan o'lgan yoki shubha qilinayotgan hayvonlarning jasadini yoqib yo'qotish shart. Bunda chuqurga jasadning ostidan o'tin tashlanib, ustidan mazut, dizel yoqilg'isi, kerosin yoki benzin quyiladi va kuyib, kul qolguncha yoqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Акулов А.В. и соавт. "Патологоанатомическая диагностика болезней крупного рогатого скота". - М., "Агропромиздат", 1987, 399 с.
2. Ibodullayev F. "Qishloq xo'jalik hayvonlarining patologik anatomiyasi". - T., "O'zbekiston", 2000, 420 s.
3. "Лабораторные исследования в ветеринарии". Под ред. Б.И.Антонова. - М., "Агропромиздат", 1986, 352 с.
4. Меркулов Г.А. "Курс патологогистологической техники". - М."Медгиз", 1976, 340 с.
5. "Патологическая анатомия сельскохозяйственных животных". Под ред. В.П.Шишкова и Н.А.Налетова. - М., "Колос", 1980, 440 с.